

## O'QUVCHILARIDA ZAMONAVIY KASBLARGA O'RGATISHNING PSIXOLOGIK MASLAHAT

*Xoliqova Nigina Mirzobotirovna*

*Buxoro viloyati Buxoro tuman 8-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog*

**Annatatsiya:** Zamona viy dunyoda yoshlarga zamona vity kasblarni o'rganish, inqirozdagi kasblarni rivojlantirish yoki boshqasi bilan almashtirish tendensiyalari taxlili.

**Kalit so'zlar:** Zamona viy kasblar, kasbga yo'naltirish, individuallik, yo'nalganlik,

O'zbekiston respublikasida o'quvchilarning kasbga moyilligi, yo'nallanligi, kasb tanlash, kasblar to'g'risidagi tasavvurlarning to'g'riliqi va aniqligini ta'minlash maqsadida o'qituvchilar hamda psixologlar keng qamrovli ishlarni tizimli va uzviy davom qildirishi maqsadga muofiq faoliyat hisoblanadi. Kasbga yo'naltirishning nazariy jihatlari kasb faoliyatining barcha tomonlari to'g'rsidagi chuqur bilimlarning shakllanishi, shu bilimlarga tayangan holda ta'lim olishni, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va buning aksi bo'lgan amaliyotning nazariyaga ko'chirish yo'llarini o'rganishni nazarda tutadi. Kasbga yo'naltirishning amaliy aspekti esa egallagan bilimlarni hayotiy faoliyatning ma'lum bir sohasida qo'llashni o'rganishdan iboratdir. Bu esa yoshlarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi.

- \* O'quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezungiyatlari xusuan kasbkorga bo'lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash;

- \* O'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash;

- \* Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqligini aniqlab, so'ng kasbga yo'llash kerak;

- \* Ota onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish;

- \* Kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar uyuştirish lozim bo'ladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini optimallashtirishga qaratilgan psixologik, pedagogik, tibbiy tadbirlar kompleks amalga oshirilishi lozim. Bu uchun esa o'quvchi o'zini- o'zi real baholashi va ijtimoiy talablarni istiqbolli baholashga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi lozim. O'quvchilarining qiziqishi, moyilligiga qarab qobiliyatiga mos kasb-hunar tanlay olish yuzasidan quyidagilarga etibor berish lozim.

Umumta'lim mакtablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini o'quvchilarning qiziqishlarini, iqtidorini, moyilligi va layoqatini hamda jamiyatni kerakli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tashkil etish hozirgi zamon talabidir.

Kasbga yo'naltirishning bosh maqsadlaridan biri - o'quvchilarni va mакtab bitiruvchilarini kelgusi ta'lim yo'nalishi va muassasasini ongli va mustaqil ravishda tanlashidir. Bundan kelib chiqib, umumta'lim mакtablarida kasbga yo'naltirish ishlarini qo'yidagi yo'nalishlarda tashkil etish lozim. Bu jarayonda kasbiy bilim, kasbiy maslahat, kasbiy taxshis va kasbiy tarbiyani ketma-ketlikda olib borish maqsadga muofiq hisoblanadi. Kasbiy bilim- o'quvchilarga turli kasblar, mutaxassisliklar, ixtisosliklar xaqida ma'lumot berish; ta'lim turlari, tanlangan kasb va mutaxassislikni qaysi ta'lim muassasasida olish mumkinligi; bundan tashqari kasblarni insonning jismoniy, ruhiy va shaxsiy sifatlarini inibatga olgan holda tanlash. Kasbiy maslahat – o'quvchilarni kasbni va o'kuv muassasini shaxsiy xususiyatlarini va mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda tanlashda yordam ko'rsatish va ma'lumot berish. Kasbiy tashxis - bilishlik (o'quv fanlariga, ilmga) va kasbiy qiziqishlik (kasblarga, mutaxassisliklarga) ni aniqlash va baho berish; o'quvchilarni tanlagan kasbi va kasbiy rejalarini sababini bilish.

Kasbiy tarbiya – bolalar va o'smirlarda umumkasbiy o'kuv, ko'nikmalarni hamda kasbga nisbattan qiziqishni, mehnatsevarlikni, mas'uliyatni, ishchanlikni rivojlantirish va shakllantirish. Kasbga yo'naltirishning maqsadlaridan biri o'quvchilarni va mакtab bitiruvchilarini ongli va mustaqil ravishda aniq kasbni tanlashiga va ta'lim muassasalariga o'qishga yo'naltirishga tayyorlashdan iboratdir. Maktab kasb-xunarga yo'naltiruvchi mutaxasisi tomonidan o'quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish kasblar xaqida ma'lumotlarni to'liqroq anglab yetishi shuningdek ularning kasb tanlashlarida reallikni vujudga keltirish maqsadida mакtabda ilg'or kasb egalari kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suxbatlari, kechalar va ma'ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tadbirlar o'quvchilarning shu kasbga bo'lgan qiziqishini yanada qat'iy lashishini vujudga keltiradi.

Kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis, sinf rahbarlari mакtab o'quvchilarining kasbga bo'lgan qiziqishi va moyilliklarining yanada rivojlanishini maqsadida xudduddagi mavjud korxona-tashkilot va muassalarga ekskursiyalar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa kasb-xunar kollejlari va akademik litseylarda umumta'lim mакtablarining bitiruvchilari uchun ochiq eshiklar kuni "Kasblar festivali"ni o'tkazilishi katta samara beradi. Yuqoridaagi tadbirlarda bitiruvchilar kasb-xunar kollejlari va akademik litseylarining sharoitlari, yo'nalishlari, fan kabinetlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar. O'quvchi o'zi qiziqqan kasbi haqida albatta o'z ota-onasiga aytishi tabiiydir. Bu maqsadda ota-onalar bilan o'z farzandini kasbiy qiziqishini aniqlaydigan suhbat so'rovnomalar o'tkazilishi foydalidir. Kasb xunarga

yo'naltiruvchi sinf raxbarlari yordamida o'quvchilarning ota-onalari bilan "Farzandim Kim bo'lishini istayman" mavzusidagi anketa savollarini o'tkazib har bir o'quvchi ota-onasining istak va hoxishlarini olishligidan iborat bo'ladi. Kasb-xunarga yo'naltiruvchi mutaxassisini anketa savollari asosida olingan ma'lumotlarni xisobga olgan xolda sinf o'quvchilari bilan ham "Men o'z kelajagimni qanday tasavvur qilaman" mavzusida test anketa savollariga javob olishi va uning ota-onasining istak xoxishlari o'rtasidagi munosiblik va tafovutlarni aniqlab olmog'i zarur bo'ladi. O'quvchi va uning ota-onasining xoxishlari mok kelgan o'quvchiga o'zi qiziqqan aniq bir kasb haqida ma'lumotlar berish, shu kasbga yaqin bo'lgan texnik va fan to'garaklariga qatnashishi haqida tavsiya berishi ularni tayyorlaydigan kasb-xunar kollejlari haqida ma'lumotlarni berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi ota-onasining istak-xoxishlari mushtarak bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan individual tarzda ishslash maqsadga muvofiqli. Bu toifadagi o'quvchining psixologikpedagogik tashxis xaritasidagi qiziqish va moyillik yo'nalishi bilan ota-onalarini tanishtirishni, shu yo'nalishdagi kasblar va ularning jamityadagi mavqeい haqida axborot va maslahatlar berish kerak bo'ladi. O'quvchi yillar davomida kasb tipini aniqlashga qaratilgan platformalardan foydalanib yakuniy psixologik-pedagogik va kasbiy tashxisdan o'tkazilib, uning qiziqishi, moyillik va layoqatlari tizimi taxlil etilib, o'quvchining eng so'nggi kasbiy yo'nalishi aniqlanadi. O'quvchilarni kasb-xunarga yo'naltirish bilan ulardagi mavjud bilimlarni barqaror kasbiy qiziqish va moyillikka hamda ularda umumiyl manfaat uchun mehnat qilish xissiyotini shakllatirishga, mamlakat xayotida rolini chuqur anglashga, shuningdek o'g'il va qizlarda mustaqillikni, tashabbusni, mas'uliyat xissini, yerga korxonaga, jonajon o'lkaza bo'lgan muhabbatini tarbiyalaga qaratishga erishish mumkin. Maktabdagi kasbiy yo'naltirishda psixologik tashxis Har bir moxir ruxshunos biladiki, maxsus mashqlar ta'sirida psixikani shakllanishning imkoniyatlari, o'quv, kasbiy faoliyat jarayonida layoqatlarining rivojlanishi uchun bexad kattaligi ayondir. Bunaqa holatda kasbiy maslaxatda psixodiagnostik ishlarni ma'nosi nimadan iborat va u kerakmi o'zi? Psixodiagnostik tadqiqot albatta foydali, ammo uning natijalari o'quvchilarni ko'proq o'zini bilishga va shakllantirishga bo'lgan intilishini faollashtirishi kerak. Ruxshunos nafaqat taxliliy - to'g'irlash ishlarini olib boradi, balkim bu ishlarning asosiy maqsadi o'quvchini kasbiy kelajagini uni shaxsidan, xususiyatidan kelib chiqib, maqsadli shakllantirishga qaratilgan. Maslaxat jarayonini o'zi bir martalik tadbir bo'lishiga qaramasdan, bu ba'zi vaqlarda ruxshunos va o'quvchining pedagogik hamkorlik printsiplari qo'llaniladigan katta va o'zoq birgalikdagi mehnatidir. Kasb yoki faoliyat turini tanlash qarori birgalikdagi ishda tug'ilishi lozim.

Maktab ruhshunosi o'zining kasbga yo'naltirilgan maslaxat ishida o'quvchilarga birorta ham kasbga inson o'zini ustidan ruxan ishlamasdan turib «qadam» qo'ya olmasligi haqidagi g'oyani o'qtirishga harakat qilishi kerak. Psixodiagnostik tadqiqot

o'quvchini o'z imkoniyatlarini, qobiliyatini, qiziqishlarini yana ham yaxshi bilishga yordam berishi lozim hamda uni o'z ustida ishlashiga, o'z-o'zini tarbiyalashiga va shakllantirishiga bo'lgan intilishlarini faollashtirishi kerak. Ruxshunos va o'quvchining yo'lga qo'yilgan munosabatlarida tadqiqot yarim yildan so'ng qaytarilishi mumkin va olingan natijalar o'quvchini kasbga yo'naltirishga qaratilgan ishlarni ahamiyati haqida xulosa qilishga imkon beradi va ularni oldiga yangi masalalarni qo'yadi.

Psixologik tashxis taxlili o'quvchini layoqatini, qiziqishlarini, psixofiziologik xususiyatlarini aniqlash uchun kasbiy maslaxatchi bilan birgalikda boshlang'ich etapda, bundan tashkari trening va korreksiya o'tqazilgandan so'ng talab qilinadigan sifatlarni rivojini tekshirishini amalga oshirishda ishlatilishi mumkin. Kasbiy qiziqishlar maktabda, uyda, mактабдан ташқари ишларда туг'ilади ва унинг манбай o'qituvchilar, ota-onalar, tengdoshlar bo'lishi mumkin. Ko'п xollarda birlamchi kasbiy qiziqishlar mustaqil bilim olishda,, mehnatda, shaxsning o'zini baxolay olish jarayonlarida yuzaga keladi. Bu albatta o'quvchida u bog'liq bo'lgan faoliyat turlariga nisbatan ishbilarmonlik xislatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. T. Xurvalieva "Maktabda psixologik xizmatni tashkil qilish" Toshkent 2008 yil
2. Adizova T.M. O`quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari.-T.,1995y. 59 b. B.-5-19; 28-45; 46-56.
3. Nishonova Z., Asqarova N.A. va boshq. O'quvchilarda past o'zlashtirish diagnostikasi va psixokorreksiysi. Toshkent, 2014.
4. Sunnatova R.I., Karimova V.M., Tadjibaeva R.N. Mustaqil fikrlash. Toshkent: Sharq.-2000. - 112 b